



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No5
MAXSUS SON



**Toshkent davlat
iqtisodiyot universiteti**



**“Yuksak intellektual yoshlar
hamdo‘stligi-kelajak
iqtisodiyot poydevori” talabalar
xalqaro festivali doirasida
o‘tkazilgan “O‘zbekistonning
“Yashil” iqtisodiyotga o‘tish
strategiyasi: mavjud muammo
va istiqbolli imkoniyatlar”
mavzusidagi maqolalar to‘plami**



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

**2024-yil
17-18-oktabr**



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 131 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 19-aprelda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.


Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 28-fevraldagi
333/5-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



BARQAROR KELAJAK UCHUN BUDJETLASHTIRISH: YASHIL TASHABBUSLAR UCHUN DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISH



Meyliev Obid Raxmatullayevich

Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

Gofurova Kamola Xayrulla qizi

Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti moliya fakulteti talabasi
qofurovakamola4@gmail.com

Annotatsiya: Hozirgi kunda asosiy global muammo hisoblangan atrof-muhitning ifloslanishi, tabiiy resurs zahiralarning kamayib borishi, resurs yetishmasligi, tabiiy ofatlarning ortib borishi va boshqa ekologik xavfli oqibatlar natijasida nafaqat ijtimoiy, balki yaqin kelajakda iqtisodiy muammolarning yuzaga kelishi kutilmoqda.

Garchi ekologik muammolarni bartaraf etish maqsadida rivojlangan davlatlar tomonidan “yashil iqtisodiyot” va “yashil budjet” tizimining davlat siyosatiga olib kirilishi ijobiy natijalar berayotgan bo‘lsa-da, rivojlanayotgan davlatlarda yashil siyosatlarning an’anaviy tizim bilan integratsiyalashuvini yaxshilash bir qator muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Xususan, yashil budjet xarajatlarning yildan-yilga ortib borayotgani, yashil daromadlar hajmining kamligi hamda budjet sivosatida yashil tashabbuslarni amalga oshirish katta miqdordagi xarajatlarni talab qilmoqda.

Ushbu maqolada yashil budjet tizimining shakllanish jarayonida yashil budjetning vazifalari va maqsadlarini amalga oshirishda uning xarajat va daromadlarini optimallashtirish jarayoni nazariv va amaliy jihatdan tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: davlat budjeti, yashil iqtisodiyot, yashil budjetlashtirish, yashil soliqlar, ekologik investitsiya, budjet xarajatlari, budjet daromadlari, yashil aksiya, yashil obligatsiyalar.

Abstract: Nowadays, as a result of environmental pollution, depletion of natural resource reserves, lack of resources, increase in occurrence of natural disasters, and other ecologically dangerous consequences, not only social but also economic and financial crises are facing the whole world.

Although the introduction of the "green economy" and "green budget" systems into state policy by developed countries in order to eliminate environmental problems shows positive results, improving the integration of the above green policies with the traditional system among developing countries creates a number of problems.

In particular, the increase of green budget expenses from year to year, the slow implementation of this with own revenues, and the harmonization of the existing policy with the new system will require a large amount of expenses.

This abstract makes a theoretical and practical study of the process of optimizing the costs and revenues of the green budget in the process of replacing the green budget system with the traditional budget.

Key words: state budget, green economy, green budgeting, green taxes, environmental investment, budget expenditures, budget revenues, green shares, green bonds.



Аннотация: В настоящее время такие глобальные проблемы, как загрязнение окружающей среды, сокращение запасов природных ресурсов, нехватка ресурсов, увеличение количества природных катастроф и другие экологически опасные последствия, могут привести в ближайшем будущем не только к социальным, но и к серьёзным экономическим проблемам.

Несмотря на то что для устранения экологических проблем в развитых странах внедряются государственные стратегии в рамках «зелёной экономики» и «зелёного бюджета», в развивающихся странах интеграция этих зелёных политик с традиционными системами вызывает ряд сложностей.

В частности, рост расходов на «зелёный бюджет» из года в год, низкий объём доходов от «зелёных» источников, а также высокая стоимость реализации «зелёных» инициатив в бюджетной политике остаются серьёзной проблемой.

В данной статье теоретически и практически анализируется процесс оптимизации расходов и доходов в рамках формирования системы «зелёного бюджета» и реализации его целей и задач.

Ключевые слова: государственный бюджет, зелёная экономика, зелёное бюджетирование, экологические налоги, экологические инвестиции, бюджетные расходы, бюджетные доходы, зелёные акции, зелёные облигации.

KIRISH

Bugungi kunda barcha davlatlar “barqaror iqtisodiy o’sish” konsepsiyasi asosida siyosiy barqarorlik va iqtisodiy taraqqiyotga erishish maqsadida biznes erkinligini kengaytirish, bozor ulushi ustidan ustunlikka erishish yo’nalishida faoliyat yuritmoqda. Biroq bu jarayon atrof-muhitning ifloslanishi va resurslar tanqisligining kuchayishiga olib kelmoqda.

Iqtisodchi olim Adam Smit o’z nazariyalarida xalqlarning boyligini quyidagi omillar bilan bog’laydi: jamiyatda aholining samarali mehnat faoliyati, shaxsiy daromadlar va foyda miqdorining yuqoriligi, hamda ish haqi darajasining milliy boylik o’sishi bilan bevosita bog’liqligi. Mamlakatda moliyaviy farovonlikka erishish va global iqtisodiy inqirozlarning oldini olish omili – bu bozorning to’yinganligi, shuningdek, ijtimoiy muhitning iqtisodiy jarayonlar bilan chuqur integratsiyalashuvidir.

Iqtisodiyotni rivojlantirish, raqobatbardoshlikni kuchaytirish va aholi daromadlarini oshirishda davlat bosh islohotchi sifatida kichik va oilaviy biznesni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Shu bilan birga, bunday iqtisodiy kengayish atrof-muhitning ifloslanishi va ekologik muammolarning kuchayishiga olib kelmoqda.

Shu sababli, 2010-yil 3-mart kuni Yevropa Ittifoqi Komissiyasi tomonidan resurslarga asoslangan, ekologik va raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish maqsadida “Barqaror o’sish strategiyasi” ishlab chiqildi [1].

Yashil budjetlashtirish – bu tom ma’noda budjet boshqaruvi va atrof-muhit bilan bog’liq jarayonlarda maqsadlar shaffofligini ta’minlash, fuqarolik jamiyati ishtirokida xarajatlarning ekologik zararsiz yo’nalishda boshqarilishini rag’batlantirish, parlament nazoratini kuchaytirish hamda davlat boshqaruvi organlari malakasini oshirish orqali daromadlar bazasini kengaytirish va ekologik xavfsiz iqtisodiy-ijtimoiy sohani rivojlantirishga xizmat qiluvchi murakkab moliyaviy mexanizmdir [2].

Biroq, an’anaviy budjet tizimidan yashil budjetlashtirishga o’tish jarayoni budjet daromadlari va xarajatlari o’rtasida nomutanosiblikni keltirib chiqaradi. Natijada, rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda yashil budjet xarajatlarning daromadlarga nisbatan yuqoriligi, belgilangan ijtimoiy xarajatlar fonida budjet tanqisligining ortishi yoki davlat qarzining belgilangan me’yordan oshib ketishiga sabab bo’lmoqda.

Tizimning nisbatan yangi bo’lishi, iqtisodiy va moliyaviy muammolarning mavjudligi, shuningdek, yashil xarajatlarning budjet daromadlari hisobidan, qarz jalb qilmasdan qoplash imkoniyatlarini o’rganish – bu boradagi nazariy qarashlarni chuqur tahlil qilish va amaliy echimlarni ishlab chiqishni taqozo etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada yashil budjet tizimini moliyalashtirish, uning vazifalarini samarali bajarishi uchun daromad manbalarini ko’paytirish va xarajatlarni minimallashtirish jarayonlarini o’rganishga qaratilgan ilmiy usullar qo’llanilgan. Jumladan, mantiqiy tahlil, qiyosiy tahlil, va statistik tahlil metodlaridan keng foydalanilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Yashil budjetlashtirishga o’tish ekologik muammolarni bartaraf etishga xizmat qilsa-da, u budjet siyosatiga oid muayyan muammolarning yuzaga kelishiga ham sabab bo’lmoqda. Xususan, yashil iqtisodiyotga yo’naltiriladigan xarajatlarning kutilganidan ortiq va izchil o’sib borayotgani yashil budjet daromadlarini shakllantirish zaruratini kuchaytirmoqda.



Iqtisodchi olimlar – Nikolay Stern [3], Jozef Stiglits [4], Pol Ekins [5], Grigoriy Yavlinskiy [6], Mixail Delyagin [7], Nataliya Zubarevich [8] va boshqalar o'z ilmiy ishlarida yashil budjetlash tizimini shakllantirishda asosiy omillar sifatida fiskal siyosatga o'zgartirishlar kiritish, yashil soliqlarni joriy etish, investitsion muhitni yaxshilash hamda xorijiy va mahalliy investorlarni ekologik xavfsiz iqtisodiy faoliyatlarga jalb etish zarurligini turli strategik qarashlar orqali asoslab berganlar.

Bundan tashqari, Uilyam Nordxaus “Iqlim kazinosi” nomli asarida “tejamkor strategiyalar”ni iqlim oʻzgarishiga qarshi kurashishda asosiy vosita sifatida eʼtirof etadi. U uglerod narxini belgilash kabi bozorga asoslangan yondashuvni qoʻllab-quvvatlab, bu mexanizm orqali nafaqat daromadlarni shakllantirish, balki davlat xarajatlarini ham minimallashtirish mumkinligini taʼkidlaydi [9]. Yaxshi ishlab chiqilgan uglerod narxi mexanizmi fiskal siyosatni kuchaytirish, barqaror iqtisodiyot uchun qayta investitsiyalar yoʻnalishini belgilash, biznesni ragʻbatlantirish hamda isteʼmolchilarning ugleroddan foydalanish samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Pol Krugman esa o'z asarlarida budjet xarajatlarini kamaytirishdan ko'ra, ekologik xavfsiz iqtisodiy muhit yaratishga ustuvor ahamiyat qaratadi. U hukumatning yashil texnologiyalar uchun maqsadli subsidiyalarni ajratishdagi roli samaradorlikni ta'minlashda muhim omil ekanini ta'kidlaydi. Uning fikricha, samarali dasturlarga ustuvorlik berish, natijasiz tashabbuslarni bosqichma-bosqich bekor qilish orqali davlat yashil iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash bilan birga, xarajatlarni ham optimallashtirishi mumkin.

Amerikalik iqtisodchi olimlardan biri Jefri Saks davlat moliyalashtirishda xususiy investitsiyalarni ham jalb etishni qo'llab-quvvatlaydi. U "Barqaror rivojlanish asrida" nomli asarida xususiy sektor ishtirokini rag'batlantirish uchun hamkorlikni yo'lga qo'yish va davlat mablag'laridan foydalanish orqali davlatning to'g'ridan-to'g'ri xarajatlarini kamaytirish bilan barqarorlik maqsadlariga erishish mumkinligini ta'kidlagan. Uning fikricha, bu budjet taqchilligini yumshatishga xizmat qiladi [10].

Biroq, davlatning iqtisodiy-ekologik barqaror rivojlanishda bosh islohatchi bo'lishi va xususiy sektor faoliyatida moliyaviy yordam ko'rsatishi samarali yondashuv bo'lishiga qaramay, bu jarayon uzoq muddatni talab qilgani sababli rivojlanayotgan davlatlarda uning samaradorligi past baholanmoqda.

Shu bois, yashil budjet siyosatini rivojlantirishda asosiy omillardan biri sifatida fiskal siyosat orqali erishish imkoniyati yuqori deb hisoblanadi. Makroiqtisodiyot va pul-kredit siyosatidagi faoliyati bilan tanilgan iqtisodchi Janet Yellen ham iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishda fiskal siyosatning ahamiyatini e'tirof etadi. U o'z chiqishlarida davlat qarzini sezilarli darajada oshirmagan holda barqaror loyihalarni moliyalashtirish uchun yashil obligatsiyalar va davlat-xususiy sheriklik kabi moliyaviy vositalardan foydalanishni taklif etadi [11].

Robert Stavins esa “Atrof-muhit iqtisodiyoti” nomli asarida ekologik siyosatda bozorga asoslangan yondashuvlarning yuqori samaradorligini ta’kidlaydi. Xulosa qilib aytganda, iqtisodchi olimlar tomonidan taklif etilgan yashil budjet xarajatlarini optimallashtirish strategiyalari budjet taqchilligi yoki davlat qarzining ortishini kamaytirish imkonini beradi. Bunday strategiyalar uzoq muddatli samaradorlikni ko’zlagan bo’lib, fiskal siyosat va investitsiyalarni keng qo’llashni nazarda tutadi. Bu esa iqtisodchi Daniel Fiorino [12] tomonidan tilga olingan kelajakdagi iqtisodiy-ekologik ingirozlarning oldini olishda foydali yo’nalish sifatida ko’rilmogda.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yashil budjetlashtirish mohiyatan budjet boshqaruvini va atrof-muhit bilan bog'liq jarayonlardagi maqsadlar shaffofligini takomillashtirish, fuqarolik jamiyati tomonidan xarajatlarni ekologik xavfsiz tarzda boshqarish, parlament nazoratini mustahkamlash hamda davlat boshqaruvi organlarining malaka oshirishiga ko'maklashish orgali daromadlarni oshirish va ekologik zararlarni minimallashtirishga xizmat qiladigan murakkab tizimdir.

So'nggi yillarda yashil budjetlashtirish tizimining asosiy vazifasi – iqlim o'zgarishi, atrof-muhitning ifloslanishi, tabiiy resurslarning tugashi va resurs taqchilligi kabi ekologik muammolarga uzoq muddatli yechimlar topishga qaratilgan. Shu sababli, uzoq muddatli loyihalar va strategik maqsadlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moliyalashtirish xarajatlarining sezilarli darajada ortishiga olib kelmoqda. Jumladan, yangi texnologiyalarni joriy etish, ekologik xavfsiz texnologiyalarni rivojlantirish, energiya resurslaridan samarali foydalanish uchun subsidiya ajratish, davlat grantlari berish yoki soliq imtiyozlarini joriy etish kabi chora-tadbirlar mavjud.

Natijada, rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda davlat budjeti daromadlarining kamayishi, xarajatlarning esa prognozdan ancha ortib ketishi holatlari kuzatilmoqda (1-jadval).

Misol uchun:

Germaniya: iqtisodiy tanazzul davrida qayta tiklanadigan energiyaga subsidiya ajratish, tarmoqlarni modernizatsiya qilish va ko'mirga bog'liqlikdan voz kechish bilan bog'liq xarajatlar budjetga katta bosim o'tkazgan;

Fransiya: ijtimoiy xarajatlar bilan birga yashil tashabbuslarga ajratilgan mablag'lar budjet qarzining o'sishiga olib kelgan;



Ispaniya: 2000-yillar boshida shamol va quyosh energiyasiga sarmoya kiritish budjet defitsitini kuchaytirgan; AQSH: ayrim shtatlarda yashil infratuzilma, elektr transport vositalari va quyosh energiyasi subsidiyalariга ajratilgan mablag'lar qisqa muddatli xarajatlarni oshirgan;

Osiyo mamlakatlari: Yaponiya, Tailand, Filippin, Hindiston va O'zbekiston singari davlatlarda ham yuqoridagi holatlar qayd etilgan.

1-jadval. Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda yashil budjetlashtirish bilan bog'liq mavjud muammolar¹.

t/r	Davlatlar	Muammo	Qiyinchilik
Rivojlangan davlatlar			
1.	Amerika Qo'shma Shtatlari	Qazib olinadigan yoqilg'ilarga subsidiyalar uchun davlatning yuqori xarajatlari, bu ko'pincha qayta tiklanadigan energiyaga investitsiyalardan ustun turadi.	Budjet cheklovlarini muvozanatlashda yashil infratuzilmaga katta sarmoya kiritish zarurati.
2.	Germinaya	Energiya o'tishi yuqori xarajatlarga olib keldi va ba'zida xarajatlar energiya soliqlaridan tushadigan daromadlardan oshib ketgan.	Yashil budjetlashtirishga o'tishda fiskal siyosat ma'suliyatini saqlab qolish.
3.	Fransiya	Ijtimoiy xarajatlar bilan birgalikda yashil tashabbuslarga katta sarmoya kiritilishi budjetning keskinlashishiga olib keldi.	Yashil maqsadlarga erishishda davlat qarzini nazorat qilib boorish.
Rivojlanayotgan davlatlar			
1.	Hindiston	Qayta tiklanadigan energiya manbalariga o'tish harakatlari moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelmoqda, chunki xarajatlar ko'pincha yashil loyihalardan tushadigan daromadlardan oshdi.	Infratuzilma ehtiyojlarini qondirish bilan birga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish.
2.	Janubiy Afrika	Iqtisodiy qiyinchiliklar sharoitida qayta tiklanadigan energetika loyihalariga xarajatlarning yuqori darajasi fiskal taqchilikka olib keldi.	Iqtisodiy tiklanishni ekologik maqsadlar bilan muvozanatlash.
3.	Braziliya	O'rmonlarning kesilishi va atrof-muhitning tanazzulga uchrashi ko'pincha hukumatning qayta tiklash va himoya qilish bo'yicha sa'y-harakatlari daromaddan oshib ketishiga olib keldi.	Iqtisodiy cheklovlarga duch kelganda barqaror rivojlanishni moliyalashtirish.

Yuqorida keltirilgan jadval ma'lumotlarida davlatlarning yashil iqtisodiyotni rivojlantirish uchun budjetlashtirishda amalga oshirilgan moliyaviy munosabatlar natijasida vujudga kelgan muammo va qiyinchiliklar ko'rsatilgan.

Shu sababli, yashil budjet xarajatlarini minimallashtirishda uning daromadlar bazasini oshirish, yashil soliqli daromadlarni shakllantirish nazariyasi tadqiq qilinmoqda. Xarajatlar kesimida yashil budjet xarajatlarini ijtimoiy xarajatlar bilan balanslashtirishda yashil tashabbuslarga e'tibor berish orqali kelajakdagi yo'qotishlarni oldini olishi belgilangan. Fiskal siyosat instrumentlarini amalda uzoq muddat qo'llash orqali yashil budjet xarajatlarini kamaytirish o'rniga daromadlarni orttirish orqali yechim topish ko'zda tutilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Amerika Qo'shma Shtati tomonidan kechilgan buyuk renessans, global iqtisodiy inqiroz turli moliyaviy va iqtisodiy dastaklarning o'z o'rnida ishlatilmaganligi natijasida yuzaga kelgan. Iqtisodchi olimlar tomonidan so'nggi yillarda muhim ahamiyatga ega bo'lgan ekologik muammolar, jumladan turli zaharli gazlar tufayli iqlim o'zgarishi, aholi iste'moli kundan-kunga ortishi, sanoatning rivojlanishi natijasida tabiiy resurslarning taqchilligi, tugab borishi, atrof-muhitning ifloslanishi, ekologik zararli faoliyatlar oqibatida tabiiy ofatlarning kuzatilish tezligi ko'payishini oldini olishda iqtisodiyot bilan chambarchas bog'liq deb fikr yuritilgan.

Negaki, ekologik-ijtimoiy rivojlanishsiz iqtisodiy barqarorlik va moliyaviy farovonlikka erishish ilojisiz hisoblanadi. Hozirgi kunda kuzatilayotgan kichik ekologik masalalarni bartaraf etish orqali kelajakda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan katta chiqimlarni oldini olish mumkin. Bunda asosiy yechim sifatida nafaqat iqtisodiyot tizimida balki moliyaviy tizimning asosiy instrumenti hisoblangan budjet sohasida ham alohida baza shakllantirish maqsadga muvofiq. Shu sababli, "yashil budjetlashtirish" tushunchasi a'anaviy budjet tizimi bilan almashtirish

¹ Muallif ishlanmasi



taklifi bildirilib, amalda qo'llash kuzatilmoqda. Biroq, kiritilgan yangi tizimni eski tizim bilan moslashtirish xarajatlarni mo'ljaldan ortishiga va budjet miqyosida o'z daromadlarini shakllantirish uchun vaqt va moliyaviy yordam talab etiladi.

Shu bois, maqolada keltirilgan fikr va xulosalar asosida yashil budjet xarajatlarini minimallashtirish va xarajatlarning daromadlari bilan balans holatida ushlab turish maqsadida quyidagi takliflarni berib qolamiz:

An'anaviy fiskal siyosatdan yashil fiskal siyosatga o'tishda davlat asosiy islohatchi hisoblanib, davlat qarzini mamlakatda ishlab chiqarilgan YalMning hajmiga nisbatini ta'minlash;

Ekologik zararli sanoat korxonalarning iqtisodiy munosabatlardan olinadigan soliq stavkalarini oshirish va bu daromadlarni yashil xarajatlarga yo'naltirish;

Yashil tashabbuslarni amalga oshirishda investitsiyalarni ko'paytirish, investitsion muhitni yaxshilash;

Ijtimoiy aholining moliyaviy savodxonligini oshirish, bunda yashil iqtisodiyot va uning negizida mavjud maqsadlarning hozir va kelajak avlod uchun iqtisodiy-ijtimoiy foydali tomonlarini ko'rsatib berish va moliyaviy-ekologik bilimni shakllantirish darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. EU Commission (2010): Europe 2020 – A European strategy for smart, sustainable and inclusive growth, COM (2010) 2020
2. Muallif fikr-mulohazasi
3. Stern, N. (2007). "The Economics of Climate Change: The Stern Review."
4. Stiglitz, J. E. (2019). "People, Power, and Profits: Progressive Capitalism for an Age of Discontent."
5. Ekins, P. (1999). "European Environmental Taxes and Charges: Recent Experience, Issues and Trends."
6. Явлинский, Г. А. (1996). Экономика переходного периода России. Москва: Издательство Весь Мир.
7. Деягин, М. Г. (2000). Глобализация и российская экономика. Москва: Институт экономики переходного периода.
8. Зубаревич, Н. В. (2010). Российские регионы: неравномерное развитие и государственная политика. Москва: Институт социального анализа и прогнозирования.
9. Uilyam B.N, "The Climate Casino: Risk, Uncertainty, and Economics for a Warming World"
10. Jeffrey.D.S, The Age of Sustainable DevelopmentThe Age of Sustainable Development Columbia University Press New York, NY 2015 xvii + 543 pp. ISBN: 978-0-231-17315-5
11. <https://home.treasury.gov/news/press-releases/jy2618>
12. Daniel Fiorino, A Good Life on a Finite Earth: The Political Economy of Green Growth (Oxford University Press, New York City, New York, 2018). 272 pp.



MUNDARIJA

YOSHLAR – ERTAMIZ EGALARI!.....	5
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna	
ОСНОВНЫЕ ПОКАЗАТЕЛИ ОЦЕНКИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НАЛОГОВЫХ ОРГАНОВ И ПОДХОДЫ В СОВРЕМЕННОСТИ	6
Абдурахимов Абдор Зафарович, Файзиев Фаррух Абдуллахожаевич	
О‘ЗBEKISTONNING “YASHIL IQTISODIYOT”GA O‘TISH STRATEGIYASI: MAVJUD MUAMMO VA ISTIQBOLLI IMKONIYATLAR	13
Akramova Aziza Abduvohidovna	
“O‘ZBEKISTONNING “YASHIL IQTISODIYOT”GA O‘TISH STRATEGIYASI: MAVJUD MUAMMO VA ISTIQBOLLI IMKONIYATLAR”	20
Eldorbekov G‘ofurbek Iskandarbek o‘g‘li	
BARQAROR KELAJAK UCHUN BudgetLASHTIRISH: YASHIL TASHABBUSLAR UCHUN DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISH.....	27
Meyliev Obid Raxmatullayevich, Gofurova Kamola Xayrulla qizi	
UZBEKISTAN’S STRATEGY FOR TRANSITION TO “GREEN ACCOUNTING”: EXISTING PROBLEMS AND PROMISING OPPORTUNITIES.....	32
Ochilov Farxodjon Shavkatjon ugli, Hamroyeva Sevinchbonu Hamroyevna	
O‘ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA SUN‘IY INTELLEKTNING O‘RNI: URBANIZATSIYA SHAROITIDA EKOLOGIK VA IQTISODIY INTEGRATSIYALASHUV.....	37
Kuvatova Oliya Sheraliyevna, Husenov Muhridin Bahriddinovich	
UZBEKISTAN’S TRANSITION TO A GREEN ECONOMY STRATEGY: CURRENT CHALLENGES AND PROMISING OPPORTUNITIES.....	43
Ikromova Munisa Ikrom qizi	
O‘ZBEKISTONDA “YASHIL” IQTISODIYOT XARAJATLARINI DAVLAT BUDJETIDAN MOLIYALASHTIRISHNING AHAMIYATI.....	48
Isaxonova Ruxshona Muzaffar qizi	
YASHIL IQTISODIYOTNING DOLZARBLIGI HAMDA BARQAROR TARAQQIYOTGA TA’SIRI.....	54
Isroilov Eldorbek Elyorbek o‘g‘li	
GREEN FINANCE IN UZBEKISTAN: ADVANCING SUSTAINABLE DEVELOPMENT THROUGH INNOVATIVE STRATEGIES	60
Jenisbekova Nazerke Jenisbekovna Yuldasheva Nadira Viktorovna	
“YASHIL IQTISODIYOT”GA O‘TISH STRATEGIYASI: O‘ZBEKISTON VA XITOIY	69
Lazimov Ilhombek Komil o‘g‘li, Nazarov Nodirjon Namoz o‘g‘li	
O‘ZBEKISTONNING YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISH JARAYONIDA XORIJ TAJRIBALARINI JORIY ETISH ORQALI SAMARADORLIKKA ERISHISH TAMOIYILLARI	77
Mamayusupova Shohina Ulug‘bek qizi	
СТРАТЕГИЯ ПЕРЕХОДА УЗБЕКИСТАНА К “ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКЕ”: СУЩЕСТВУЮЩИЕ ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВНЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ.....	83
Махмудова Юлдузхон Бахромжон кизи	
O‘ZBEKISTONNING “YASHIL IQTISODIYOT”GA O‘TISH STRATEGIYASI: MAVJUD MUAMMO VA ISTIQBOLLI IMKONIYATLAR	89
Mirzohamdamov Abdurasul Ravshan o‘g‘li, Beknazarov Zafarjon Ergashevich	



O'ZBEKISTONNING "YASHIL IQTISODIYOT"GA O'TISH STRATEGIYASI VA BU ORQALI BARQAROR IQTISODIYOTGA ERISHISHI: MAVJUD MUAMMO VA ISTIQBOLLI IMKONIYATLAR.....	94
Saydamatova Muxlisabonu Rasuljon qizi	
СТРАТЕГИЯ ПЕРЕХОДА УЗБЕКИСТАНА К "ЗЕЛЕНОЙ ЭКОНОМИКЕ": СУЩЕСТВУЮЩИЕ ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВНЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ	100
Усмонов Дониёр Ибрагимович, Насырходжаева Диляфруз Сабитхановна	
NEW INSURANCE PRODUCTS IN GREEN ECONOMY: NEW OPPORTUNITIES AND RISKS IN THE FINANCIAL SECURITY CONTEXT.....	110
Xodjaraxmanova Nazira Bakhtiyar kizi	
PRIORITY DIRECTIONS FOR THE DEVELOPMENT OF GREEN ECONOMY IN UZBEKISTAN	117
Yo'ldoshev Ozodbek Abduvohid o'g'li	
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA RESURSLARINI MOLIYALASHTIRISHGA OID LOYIHALARINI AMALGA OSHIRISH VA ULARNING STATISTIKASI	122
Yoqubboyev Ilhomjon G'ulomjon o'g'li	



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2024-yil 17-18-oktabr, № 5 maxsus son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
